“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BARQAROR RIVOJANISH MARKAZI XORAZM VILOYATI BO‘LINMASI

MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI: TAJRIBA, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami
2025-yil 23-24 may

AYMAQLIQ EKONOMIKANIŃ ZAMANAGÓY MASHQALALARI: TÁJIRIYBE, TENDENCIYALAR HÁM PERSPEKTIVALAR

III respublikalıq ilimiy-ámeliy konferenciya materialları toplamı
2025-jıl 23-24-may

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОПЫТ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

сборник материалов III республиканской научно-практической конференции
23-24 мая 2025

MODERN PROBLEMS OF THE REGIONAL ECONOMY: EXPERIENCE, TRENDS AND PROSPECTS

Collection of materials of the III republican scientific and practical conference
May 23-24, 2025

Nukus - 2025

“Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari: tajriba, tendentsiyalar va istiqbollar” III respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. –T.: TDIU-QDU. 2025. – 570 b.

Ushbu to‘plam FZ-5421033210-sonli “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining metodologik asoslari”nomli fundamental loyiha doirasida “Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari: tajriba, tendentsiyalar va istiqbollar” mavzusida bo‘lib, unda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va mintaqaviy muammolar, hududiy boshqaruvni markazsizlashtirish va hududlarni rivojlantirishning iqtisodiy vositalarini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va uning mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish bilan o'zaro bog‘liqligi, hududlarni rivojlantirish va “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirishning ekologik muammolari va mintaqaviy rivojlanish bo‘yicha fanlararo tadqiqotlar: sotsiologiya, hududiy brendlar, yangi iqtisodiy geografiya kabi mavzularga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlari aks ettirilgan materiallar bayoni keltirilgan.

To‘plamga iqtisodiy muammolar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan yetakchi xorijiy va mahalliy oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqot muassasalarining mutaxassislari, ilmiy xodimlari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari hamda iqtidorli talabalari, vazirlik va korxonalarning rahbar xodimlari va mutaxassislarining ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

To‘plamda keltirilgan materialllarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar, keltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Tahrir hay’ati raislari:

prof. A.Qodirov
prof. B.Qalmurotov

Tahrir hay’ati a’zolari:

N.K.Aimbetov – akademik, i.f.d., professor
S.K.Xudoyqulov – i.f.d., professor
B.Ruzmetov – i.f.d., professor
P.P.Deryugin – ijtimoiy fanlar doktori, professor
A.T.Axmediyeva – DSc, professor
B.X.Ma’murov – PhD, dotsent
Z.A.Fazliddinova – tadqiqotchi

Taqrizchilar:

i.f.d., prof. F.T.Egamberdiyev
i.f.d., prof. N.M.Maxmudov

© “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM, 2025-yil

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov Q.X. va boshq. Raqamli iqtisodiyot: nazariya, tahlil, amaliyot. – T.: “Iqtisodiyot”, 2021.

2. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 160 p.

3. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014. – 320 p.

4. UNCTAD. Digital Economy Report 2023: Cross-border data flows and development. Geneva: United Nations, 2023.

5. World Bank. World Development Report 2023: Digitalization and Development. Washington D.C., 2023.

6. www.mitc.uz - Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy hisobotlari, 2024.

7. www.it-park.uz - IT-Park O‘zbekiston rasmiy sahifasi, 2024.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA INTELLEKTUAL RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH — RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Abduvohidova Gulshan Akmalovna
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Institutiu
Menejment kafedrasi assitent stajyori

Raqamli iqtisodiyot — zamonaviy texnologiyalar asosida iqtisodiy munosabatlar, xizmatlar va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish tizimidir. Xizmat ko‘rsatish sohasi esa bu transformatsiyaning oldingi safida turibdi. Bu sohaga intellektual resurslarni to‘g‘ri jalb etish raqamli xizmatlarning sifati va samaradorligini ta’minlaydi.[187] Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida xizmatlar tarmog‘ining o‘rni tobora ortib bormoqda. Bunday sharoitda intellektual resurslarning, ayniqsa hududiy xizmatlarda innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unligi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida elektron xizmatlar ko‘rsatish markazlari tashkil etilishi xizmatlar infratuzilmasining kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Bu hududlarda xizmatlar sektorida yangi raqamli ish o‘rinlari yaratilib, mahalliy mutaxassislarning salohiyatidan keng foydalanilmoqda.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini mintaqaviy raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko‘rish mumkin. Bunda hududiy indikatorlar, xizmatlar eksporti, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va intellektual mulkdan foydalanish ko‘rsatkichlari asosida mintaqalararo farqni qisqartirish mumkin. Raqamli xizmatlar orqali davlat xizmatlariga murojaat qilish tezligi, sog‘liqni saqlashda navbatni qisqartirish, ta’limda masofaviy kurslar orqali qamrovni oshirish kabi real o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

G. Bekkerning inson kapitali nazariyasi asosida intellektual resurslar deganda faqat bilim emas, balki tajriba, kasbiy ko‘nikma va yangilikka ochiqlik ham nazarda

[187] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – https://lex.uz/ru/docs/6034470

tutiladi . [188] Xizmat ko‘rsatishda bu omillar xizmat madaniyati, texnologik savodxonlik va mijozga yo‘naltirilganlikni belgilaydi. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya nazariyasi doirasida M. Castells (2000) va E. Toffler (1980) kabi tadqiqotchilar raqamli iqtisodiyot va bilimga asoslangan jamiyat tushunchasini ilgari surgan. Ularning ta’kidlashicha, xizmatlar sohasi raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirgan holda mintaqaviy rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi.

O‘zbekistonda xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotda 35% dan ortiq ulushni tashkil etadi. Misol sifatida, O‘zbekistonda xizmatlar sohasida raqamlashtirish bo‘yicha IT Park rezidentlari tomonidan ishlab chiqilgan mobil ilovalar, my.gov.uz orqali davlat xizmatlarini olish tizimi va One ID platformasi kabi innovatsion loyihalar natijasida xizmatlar sifati va tezkorligi oshmoqda.[189] Xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun bir nechta zarur strategik yo‘nalishlar aniqlangan. Birinchidan, xizmatlar sohasida ishlovchi kadrlar uchun raqamli kompetensiyalar bo‘yicha uzluksiz ta’lim tizimini tashkil etish lozim. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etishda davlat tomonidan moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari yaratilishi kerak. Uchinchidan, xizmat ko‘rsatish markazlari va texnoparklar o‘rtasida axborot almashinuvi tizimi joriy etilishi orqali hamkorlik kuchaytiriladi.Quyida 2020–2024-yillarda xizmat sohalarida raqamlashtirish darajasi asosida tuzilgan chizma taqdim etilgan(1-jadval)

1-jadval

Xizmat sohalarida raqamlashtirish darajasi (2020–2024)[190]

№	Xizmat sohasi	2020-yil (%)	2024-yil (%)
1	Bank	45	80
2	Tibbiyot	30	65
3	Ta’lim	35	75
4	Turizm	25	60
5	Savdo	40	85

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2024-yilga kelib savdo va bank xizmatlarida raqamlashtirish darajasi 80% dan oshgan. Bu xizmatlar tarmog‘ida intellektual salohiyatdan oqilona foydalanilayotganini ko‘rsatadi. Boshqa sohalar esa asta-sekin raqamli infratuzilmaga moslashmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki,xizmat ko‘rsatish sohasida intellektual resurslardan samarali foydalanish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda strategik omil hisoblanadi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish, texnologik savodxonlik va innovatsion xizmatlar madaniyati asosida raqamli xizmatlar eksportini kengaytirish mumkin. Shuningdek, xizmatlar sektorida davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish, hamda hududiy xizmatlar platformalarini yaratish orqali raqamli iqtisodiyotning hududiy asosi mustahkamlanadi.

---

[188] Becker G. Human Capital. – Chicago: University of Chicago Press, 1964.

[189] Becker G. Human Capital. – Chicago: University of Chicago Press, 1964.

[190] Grafik va jadval muallif tomonidan tayyorlangan. Ma’lumotlar asosida: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi,

Yana bir muhim jihat — xizmatlar sohasida axborot xavfsizligini ta’minlash masalasidir. Raqamlashtirish jarayonida xizmatlar ko‘rsatish subyektlarining ma’lumotlar bazasi yuqori xavfsizlik talablariga javob berishi kerak. Shu bilan birga, foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoyalash bo‘yicha qonunchilik asoslari takomillashtirilishi zarur. Bu esa, ishonchli xizmatlar tizimini shakllantirish va foydalanuvchilar sonini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – https://lex.uz/ru/docs/6034470

2. Safarov Sh. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslar va amaliy yo‘nalishlar. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.

3. Becker G. Human Capital. – Chicago: University of Chicago Press, 1964.

4. Jalolov J.J. Innovatsion rivojlanish va intellektual resurslar. – Samarqand: SamDU, 2021.

5. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2000.

6. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980.

7. OECD. The Digital Transformation of Services. – OECD Publishing, 2021. – https://www.oecd.org/publications/the-digital-transformation-of-services

8. World Bank. Digital Economy for Central Asia. – Washington D.C.: World Bank Group, 2023.

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TARKIBIY VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHNING ALOQADORLIGI

Vayskulov Ramazon Alisher o‘g‘li
QarshiDU tayanch doktoranti

Jahon iqtisodiyotida so’nggi yillarda transformativ jarayonlar sodir bo’lmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro integratsiyalashuv, yangi texnologiyalarning joriy etilishi, tarmoqlar va sohalardagi tub o’zgarishlarni misol keltirish mumkin. Hukumat bunday o’zgarishlarni qo’llab quvvatlash orqali nafaqat ichki balki, xalqaro bozorda raqobatbardoshlikka erishish, iqtisodiyotda serdaromad sohalarning ko’payishini ta’minlaydigan barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga intiladi. O’zbekistonda ham bunday jarayonlarni amalga oshirish qabul qilinayotgan milliy strategiyalarda hamda normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida ham “Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta’minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish” kabi vazifalar belgilangan[1]. Shunday ekan, iqtisodiyotda transformatsion jarayonlarni amalga oshirish hamda bunday jarayonlarga oid tadqiqotlar olib borish iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim vazifalardan biridir.

Dunyo amaliyotida raqamli texnologiyalar barcha sohalarga integratsiyalashuvi hamda iqtisodiyotda ham ularning joriy etilishi davridan raqamli transformativ jarayonlar boshlangan. Bu holat esa o’z navbatida iqtisodiy